


## Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

### 1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 sentyabr holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22100 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 13,7 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining asosiy qismi, 6968 tasi Samarqand shahriga, 1953 tasi Urgut, 1754 tasi Pastdarg'om, 1465 tasi Samarqand, 1180 tasi Payariq, 1108 tasi Ishtixon, 1027 tasi Kattaqo'rg'on, 875 tasi Bulung'ur, 872 tasi Narpay, 849 tasi Tayloq, 840 tasi Oqdaryo, 728 tasi Jomboy, 642 tasi Nurobod, 578 tasi Paxtachi, 535 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 726 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### 2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 sentyabr holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 21043 tani tashkil etildi.


Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha asosiy qismi, 6652 tasi Samarqand shahriga, 1922 tasi Urgut, 1625 tasi Pastdarg'om, 1411 tasi Samarqand, 1096 tasi Payariq, 1076 tasi Ishtixon, 957 tasi Kattaqo'rg'on, 814 tasi Bulung'ur, 831 tasi Tayloq, 835 tasi Narpay, 797 tasi Oqdaryo, 666 tasi Jomboy, 602 tasi Nurobod, 544 tasi Paxtachi, 512 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 703 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 sentyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 21043 ta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) asosiy qismi 4775 tasi savdo, 3696 tasi sanoat, 1656 tasi qurilish, 1403 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1201 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 678 tasi tashish va saqlash, 449 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 384 tasi axborot va aloqa hamda 6801 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda



### **3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish**

2017 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 266 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 9,5 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 205 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 187 tasi sanoatda, 41 tasi savdo, 13 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4 tasi tashish va saqlashda, 1 tasi qurilishda va 15 boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

### 2017 yil 1 sentyabr holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

